

2022-yil 17-may

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi rahbari D. Xodjayeva bundan buyon bir tomonidan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomonidan "Farg'ona tuman yo'llardan foydalanish" unitary korxonasi rahbari A.Zikriyayev nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon "Pudratchi" deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnomaga tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Pudratchi" Farg'ona shahar ko'chalariga obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish uchun, «Buyurtmachi» esa ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarini belgilangan tartibda oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Nafosat MFY Xazina, Koinot ko'chalari 2 km qismini joriy ta'mirlash	Xizmat	1	769 762 104	769 762 104
	Jami:				769 762 104

Tovarlarning shartnomaviy umumiyligi bahosi QQS ni o'z ichiga olgan holda 769 762 104 so'm (yeti yuz oltmis to'qqiz million yeti yuz oltmis ikki ming bir yuz to'rt) so'm.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Buyurtmachi» ko'rsatilgan xizmatning **30 %** (foiz) miqdorida pul mablag'iini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan **70%** (foiz) qismini "Pudratchi" tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob –fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Xizmatlar "Pudratchi"ning transportida yetkazib berilganda transport harajati o'zaro kelishilgan holda qo'shimcha belgilanadi.

IV. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLAR

4.1. "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar 30 kun muddatda to'liq yakunlanishi kerak.

4.2. "Pudratchi" bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatlari bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. "Pudratchi" ishlarning bajarilishini texnika havfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga ~ rivoja qilgan holda amalga oshiradi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. "Pudratchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarni to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.1.1. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjalariiga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.1.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.1.3. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, "Buyurtmachi" tomonidan dalolatnomalar rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda "Pudratchi"ga xabar yuboriladi. "Pudratchi" tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligidagi Shuningdek ushbu Shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. "Pudratchi" tomonidan «Buyurtmachi»ga hizmatlar belgilangan muddatlarda bajarmaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan hizmat kiymatining 0,5 % (foiz) Miqdorida «Buyurtmachiga» ga penya tulaydi, lekin penya miqdorida kechiktirilgan hizmat kiymatining 50 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnomaga talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlarda bajarilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu hizmatlar kiymatining 20 % Miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Buyurtmachi» томонидан hizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,4 % (foiz) Miqdorida "Pudratchi"ga penya tulaydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari томонидан o'tkazilgan tekshirish davomida kp'satilgan xizmatlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq "Pudratchi" томонидан qoplanadi.

6.6. Jarimalar to'lanishi "Pudratchi"ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi. "Pudratchi" bajarilgan ishlar uchun 12 oy muddatga kafolat beradi.

VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmasan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Shartnomada ko'satilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, Shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar Tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu Shartnomada ko'satilgan majburiyatlarini bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzlusiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yo'zma ravishda ogoxlantirib, Shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

VIII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladijan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuv bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar «Buyurtmachi» joylashgan yerdagi iqtisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjalari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari томонидан shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular томонидан shartnoma doirasida jalg qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf томонидан qoida buzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomanı bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqlı.

X. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 17-maydan 2022-yil 31-dekabr 2 nusxada tuzildi.

9.4. Shartnoma taraflar томонидан imzolanib, g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. QO'SHIMCHA SHARTLAR

XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Buyurtmachi»

Farg'ona shaxar Obodonlashtirish Boshqarmasi,
Farg'ona shaxar, Mustakilik Ko'chasi №3 uy,
OKONX 90290 MFO 00014
INN 201122919

SHR

Raxbar:



D. Xodjayeva

"Pudratchi"

Farg'ona tumani yo'llardan foydalanish unitar
korxonasi YO'LLARDAN FAYDOLASH
Farg'ona shaxar Mustaqillik ko'chasi 350a uy

Telefon: +998 73-226 7999

XR/22626000200210835002

MFO: 01131

INN: 200197217

Raxbar:

A. Zikriyayev



**YuRIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**
№ BX0726213448

1. Loyihaning turi: Pudrat Shartnomasi № 2142
2. Loyihaning nomi: Farg’ona viloyati Farg’ona shahar Nafosat MFY Xazina, Koinot ko’chalarini 2 km qismini joriy ta’mirlash haqida.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Farg’ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 17-may kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 17-may kuni tizimga kiritilgan.
4. Loyiha bo‘yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



F.Jumaboyeva